



КАЗАХСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/FDVG5365

SEZGI A'ZOLARI ASOSIDA TASVIRIY MATN YARATISH JARAYONI TAHLILI

Davronova Zebiniso Bahtiyor qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,**O'zbek tili va adabiyoti ta'limi kafedrasida tayanch doktoranti**zebinisodavronova4@gmail.com**ORCID ID:0009 0009 7981 6793*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarning tasviriyl matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirishda besh hissiy sezish a'zosi asosida tashkil etilgan dars mashg'ulotlarining tahlili bayon etildi. Ushbu yondashuv samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tadqiqot natijalari yuzasidan xulosalar berib o'tildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu yondashuv orqali shaxs tasviri hamda o'rin-joy tasviri matnini yozishni o'rgatishda samaradorlikka erishish mumkinligi ko'rsatib o'tildi. O'quvchilarda jadvaldagi ma'lumotlarni matn ko'rinishiga aylantirishda qiyinchiliklarga uchrashi kuzatildi hamda ushbu ko'nikma yetarli darajada shakllanmagani namoyon bo'ldi.

Kalit so'zlar: *tasviriyl matn, besh hissiy a'zosi, ko'nikma, yondashuv, tajriba-sinov, 5-sinf, tadqiqot*

Аннотация. Это статья представляет собой анализ уроков, организованных на основе пяти чувствительных органов, направленных на развитие у учеников навыков создания описательных текстов. Сделаны выводы по результатам исследования, проведённого с целью определения эффективности этого подхода. Согласно результатам исследования, было показано, что этот подход может быть эффективным в обучении написанию описаний людей и мест. Были зафиксированы трудности у учеников при преобразовании данных из таблицы в текстовую форму, что свидетельствует о недостаточном уровне развития этого навыка.

Ключевые слова: описание текста, пять чувствительных органов, навык, подход, эксперимент-испытание, 5-й класс, исследование.

Abstract. This article presents an analysis of lessons organized based on the five sensory organs to develop students' skills in creating descriptive texts. Conclusions are provided based on the results of a study conducted to determine the effectiveness of this approach. According to the research findings, it was demonstrated that this approach can be effective in teaching students to write descriptions of people and places. Difficulties were observed among students in transforming the information in the table into text form, revealing that this skill has not been sufficiently developed.

Keywords: descriptive text, five sensory organs, skill, approach, experiment-test, 5th grade, research.

Bugungi kun butun dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish hamda shakllantirish orqali ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlash, hayotdagi turli vaziyatlarga tayyorlash hamda bu orqali mamlakatni rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi turli yondashuvlar va metodik ishlar muhim hisoblanadi. Shu jumladan, tasviriyl matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish o'quvchilarni turli nutqiy vaziyatlarga tayyorlash hamda o'quvchilarda til ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.



Tasviriy matn yaratishdan asosiy maqsad shaxsni, joyni yoki narsalarni shunday tasvirlashdan iboratki, o'quvchi ongida tasvirlanayotgan narsalarning aksi shakllansin. Ayniqsa, tasviriy matn yaratish davomida barcha detallarga, tafsilotlarga diqqat bilan qaraladi.

Nima uchun aynan tasviriy matn yaratish ko'nikmasini o'quvchilarda shakllantirish kerak?

Avvalo, tasviriy matn yaratish o'quvchilar uchun qiziqarli jarayon bo'lib, ularni o'qishga jalb qiladi.

O'quvchilar tasviriy matn yaratish jarayonida yangi lug'atlarni o'zlashtirishadi, chunki ular matn yaratish jarayonida yangi so'zlarni mazmunli kontekstda qo'llashni mashq qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'quvchilar tasviriy matn yaratish davomida o'xshatish, metofora kabilarni turli vaziyatlarda qo'llashni o'rganishadi.

O'quvchilar boshqa o'quvchilarning tasviridan turli usullarni o'rganishadi.

Tasviriy matn yaratish davomida yangi mavzu bo'yicha o'z tushunchalarini aniqlashtirishadi va o'rganganlarini ko'proq eslab qolishadi.

Dars mashg'ulotlarini samarali tashkil etishda, albatta, ushbu mashg'ulotlarga mos yondashuvga tayanish maqsadga muvofiqdir. Xususan, matn yaratish jarayonini tashkil etishdagi yondashuvlar va ularning tahlili K.Mavlonovanning ilmiy tadqiqot ishida [Mavlonova, 2023. 73–95] o'z ifodasini topgan. Mazkur tadqiqotdan tasviriy matn yaratish jarayonida ham aynan qaysi yondashuvga tayanish mumkinligi bo'yicha ayrim yo'nalishlarni olishimiz mumkin.

Xorij manbalarini o'rganish davomida tasviriy matn yaratish oid ko'plab muhim ma'lumotlar uchrashi kuzatildi. Masalan, Sheyn Mak Donnchaid tasviriy matnni quyidagicha ta'riflaydi: "Tasviriy matn biror joyni, obyektini, shaxsni yoki makonni tavsiflashga qaratilgan bo'ladi. Tasviriy matn o'quvchilarning barcha beshta hissiy sezish qobiliyatlarini jalb qilishga harakat qiladi". Olim eshitish, ko'rish, ta'm sezish, hid bilish va tana orqali sezish kabi besh sezish qobiliyati tasviriy matn yaratishda muhim ekanini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, arab tili o'qitish mashg'ulotlarida ham ushbu yondashuvdan samarali foydalanishlarini ko'rishimiz mumkin. Bunda "ko'raman, eshitaman, qaytaraman, his qilaman" tamoyili asosida darslar amalga oshiriladi. O'quvchi tasviriy matn yaratish davomida barcha sezgi a'zolaridan samarali foydalanish orqali tasvirlanayotgan obyektning barcha xususiyatlarini yoritib bera olishi mumkin.

Tasviriy matn yaratish ko'nikmasini o'quvchilarda rivojlantirish uchun turli ko'rsatmalar, amaliyot va vaqt talab etiladi. Tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirishning yagona to'g'ri yondashuvi mavjud bo'lmasa-da, ammo tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ba'zi samarali ko'rsatmalar mavjud. Ulardan biri tasviriy matnni beshta sezgi yordamida yaratishdir. Bunda o'quvchilar ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid bilish, tana orqali sezish yordamida tasvirni amalga oshirishadi. Besh sezgi a'zosi yordamida tasvirni mukammallashtirish hamda barcha mayda detallargacha e'tibor qaratish imkoniga ega bo'lish mumkin.



Masalan, *issiq kun* tasvirini beshta sezgi organimizdan foydalanib tasvirlaymiz.

Ko'rish. Issiq kunda biz nimalarni ko'rishimiz mumkin?

Masalan, *quyosh yarqirab nur sochyapti. Qizil va ter bosgan yuzlar. O'simliklar qovjirab qolgan.*

Eshitish. Issiq kunda biz nimalarni eshitishimiz mumkin?

Masalan, *asosan, jimlik, suv havzalaridagi suvlarning shaloplashi.*

Hid bilish. Issiq kunda biz nimalarning hidini sezishimiz mumkin?

Masalan, *issiq asfalt hidi, ter bosgan bolalar.*

Ta'm bilish. Issiq kunda biz nimalarning ta'mini bilishimiz mumkin?

Masalan, *sho'r terining ta'mi, muzqaymoq ta'mi, og'iz qurishi.*

Tana orqali sezish. Issiq kunda biz tanamiz orqali nimalarni sezishimiz mumkin?

Masalan, *mashina xavfsizlik kamari temirining issiq metali, quyosh illiqligi, terlash.*

Yuqorida berilgan so'zlardan foydalanib gaplar hosil qilinadi. Ushbu gaplar asosida tasviriy matn yaratiladi.

Besh sezgi a'zo yordamida tasviriy matn yaratishni jadval asosida ham amalga oshirishimiz mumkin. Bunda o'quvchilarni tasviriy matn yaratish jarayoniga tayyorlaymiz.

Ushbu yondashuvning samaradorligini aniqlash maqsadida maktab o'quvchilarida tadqiqot ishlarini amalga oshirdik. Quyida o'tkazilgan tadqiqot tahlilini keltiramiz.

5-sinf o'quvchilarida o'tkazilgan tajriba-sinov darslarida beshta hissiy sezgi organi orqali tasviriy matn yaratish amalga oshirildi. Dastlab o'quvchilardan tajriba oldi holatni aniqlash uchun o'zlarining sevimli hayvonlari hamda sayohat qilgan joylarini tasvirlab matn yaratishlari topshiriq qilib berildi. So'ngra o'quvchilarga quyidagi jadval asosida ma'lumotlarni shakllantirish vazifa qilib berildi. O'quvchilar sayohat qilgan yoki oilaviy borgan joylarini hamda o'zlari tanlagan hayvon haqidagi ma'lumotlar yozib borishdi. Tajriba yakunida o'zlari tayyorlagan ma'lumotlar asosida matnlarini qayta yozishdi, ya'ni jadvaldagi ma'lumotlarni matn ko'rinishiga keltirib qo'shimchalar kiritishdi.

Namuna: *hayvonot bog'i, baliq hayvoni tasviri uchun.*

Ko'rish	Eshitish	Ta'm bilish	Hid sezish	Tana orqali sezish
Hayvonot bog'idagi hayvonlarning qafasda saqlanishi, ularning har xil turlari, ovqatlanishi, qiliqlari. bolachalarning xursandchilikda o'ynab yurishlari.	Qushlarning sayrashi, hayvonlarning o'kirigi.	Oilaviy muzqaymoq, lavash yedik.	Maymunlar bo'limidan sassiq hid sezildi. Popkornlarning yoqimli hidlari, milliy taomlar ovqatlanish joyining yonidan o'tganda shashlik	To'tiqush bilan rasmga tushganda uning qattiq tirnoqlari, mayin patlarini ushladim.



hidi.

Baliqning bor.	tangachalari	Suvdan baliq- baliq tovushi	Yeganda juda mazali.	Biroz yoqimsiz hidi bor, ya'ni sassiq.	Ushlagan paytda	
Tangachalari turadi.	yaltirab	chiqadi.			qo'ldan	
Dumlarini likillatadi.		Suzgan			sirpanib	
Ko'zlari	katta-katta	vaqtda suv			ketadi	va
ochilgan.		shitirlaydi.			biroz	
					shilimshiq.	

Tajriba sinovdan oldingi holat: (5- "A" sinf. Izzatilla R.) 22.04.2025.

O'quvchi yozgan birinchi matnda sevimli hayvoni sifatida tasvirlangan qoplonning tezligi, tez yugurishi haqidagi ma'lumotlar bilan chegaralangan. Shuningdek, o'quvchi "men futbolga qiziqaman, u o'yinda ham juda tez yugurish kerak" jumlasini ham ushbu matn tarkibiga kiritib o'tgan. Lekin ushbu gap qoplon hayvoni tasvirlanishi kerak bo'lgan matn mazmuniga mos emas. O'quvchi yozgan matn "yugurish va tezlik" mazmuni atrofidagi jumalardan tuzilgan. Matnda qoplon tasviri berilgan "u juda tez yuguradi" va "uning tezligi soatiga 120 km" jumalari mavjud. Ammo o'quvchi "u juda tez yuguradi" va "eng tez yuguradigan hayvon" kabi takroriy jumalardan foydalanishi ham kuzatiladi.



Tajriba-sinovdan keyingi holat:

Tajriba-sinov yakunida yozilgan matnni tahlil qiladigan bo'lsak, birinchi yozilgan matn mazmunidan farqli jihatlarini ko'rishimiz mumkin. Ikkinchi matnda o'quvchi qoplon haqidagi ma'lumotlarni batafsilroq berib, uning ko'rinishini (*qoplonning mo'ynasi mayin, u juda chiroyli*), ovozini (*u juda baland o'kiradi*), o'ziga xos xususiyatlarini (*uning tishlari juda o'tkir*) tasvirlamoqda. Qolaversa, nimalar bilan oziqlanishi (*u kiyik, ohu va yovvoyi buqalar bilan oziqlanadi*), yashash tarzi (*u to'da bo'lib yashamaydi, u ulg'aygach o'ziga juft tanlaydi*) haqidagi ma'lumotlar bilan matn boyitilgan. Matn tarkibida o'quvchi ushbu hayvonga o'zining munosabatini ham bildirib o'tgan (*u men uchun eng zo'r hayvon*).

Ushbu natijalar bo'yicha quyidagicha xulosalarni berishimiz mumkin bo'ladi:

- o'quvchilar biror narsani tasvirlashda aynan nimani tasvirlashi kerakligini bilishda qiynalishadi. Bunday vaziyatda yuqoridagi jadval matn uchun ma'lumotlar omborini shakllantirib olishga yordam beradi;

- ba'zi o'quvchilar uchun jadvaldagi ma'lumotlarni matn holatiga keltirish qiyinchilik tug'dirmoqda. Bundan kelib chiqadiki, o'quvchilarda jadval ko'rinishidagi ma'lumotlarni matn holatiga keltirish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan;

- beshta sezgi organi orqali tasvirlashda oltinchi turi sifatida o'quvchilarning qalb hissiyotini, ya'ni ularga yoqishi, xursand bo'lishi kabi hissiyotlarini, o'zlarining munosabatlarini ham ifodalaydigan bo'limni qo'shish orqali yanada samaradorlikka erishish mumkin;

- Ushbu jadvaldan tasviriy matnning boshqa turlarini yozish jarayonida foydalanib samarali natijalarga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Mavlonova K. Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasi: ped.fan.dok...diss. Toshkent, 2023. – 278 b.

2. Richie Billing. Excellent 5 senses examples to empower your writing. <https://richiebilling.com/writing-tips/using-the-5-senses-in-writing>

3. Shane Mac Donnchaidh. How to write a descriptive text. <https://literacyideas.com/how-to-write-a-descriptive-text/>



<i>MASALASI</i>	
<i>Abdiraimova Khusnobod Samat kizi. KOGNITIV VA METAKOGNITIV O'QIB TUSHUNISH STRATEGIYALARI</i>	597
<i>Xonzodabegim Abdiyeva Turdiboy qizi. ONA TILINI O'QITISHDA FOTO MATERIALLARDAN FOYDALANISH</i>	603
<i>Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi. SO'ZNING SEMANTIK TARKIBIDA ASOS VA AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI</i>	605
<i>Ahmadjonova Umida Ikromjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR TAHLILI</i>	614
<i>Askarova Mashxura Akmal qizi. NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH</i>	620
<i>Atamurodova Gulnora Shermurodovna. TALAFFUZI QIYIN BO'LGAN AYRIM NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI</i>	626
<i>Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi. IJOD MAKTABLARIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI</i>	630
<i>Avezova Dilnura Bayramovna. ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH USULLARI</i>	635
<i>Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA LUG'AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI</i>	638
<i>Davronova Zebiniso Bahtiyor qizi. SEZGI A'ZOLARI ASOSIDA TASVIRIY MATN YARATISH JARAYONI TAHLILI</i>	646
<i>Ergasheva Lobarxon O'tkir qizi. TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA AUTENTIK MATN VA UNDAN FOYDALANISHDAGI AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR</i>	651
<i>Hamroyev Umid Mustafoyevich. O'QUVCHILARDA KOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	656
<i>Iskandarova Noila Muxtor qizi. PUBLITSISTIK USLUBNI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARNING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	661
<i>Israilova Z. XORIJLIK TALABALARINING O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI</i>	664
<i>Komilova Lola Nosillovna. ONA TILI TA'LIMIDA DARAJALI TESTLAR</i>	670
<i>Axmadiyeva Ozoda Iskandar qizi. 10-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</i>	677
<i>Madina Axmadjanova Mahmudjon qizi. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI GRAMMATIK MINIMUM ASOSIDA O'QITISH TAMOIYILLARI</i>	682
<i>Komilov Xusanboy Bahodir o'g'li. ONA TILINI O'QITISHDA INTERFAOL DASTURLAR VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH</i>	689
<i>Madvaliyev Orifjon Tolibovich. TAHRIR TA'LIMINI TASHKIL ETISH: DASTLABKI QADAMLAR</i>	693

